

ONA TILI DARSLARIDA KELISHIK QO'SHIMCHALARINI O'TISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Xusanova Nazokat Azamatovna.

Toshkent viloyati Parkent tumani MMTBga qarashli 31-sonli maktabning

Oliy toifali Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Kirish .

Bugungi kunda fan, madaniyat, axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ta'limga rivojlantirish eng assosiy masalaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyatini to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'limga jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Chunonchi, mazkur jarayonning uchinchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar)da "...ta'limga muassasalarini moddiy resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash" kabi dolzarb vazifalar ijobjiy hal etilmog'i lozim. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni uzluksiz ta'limga tizimi xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'limga texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'limga jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'limga jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarning ona tili va adabiyot fani asoslarini o'qitishda yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'limga jarayonini

mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o‘zlashtirilishi, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarining hosil bo‘lishining kafolati bo‘la oladi. Bugun til, adabiyot kirib bormagan biror soha yo‘q, har bir fan, albatta, ona tili bilan uzviy bog‘liq. Ushbu fanga o‘quvchini qiziqtirish, rejada berilgan mavzularni to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash pedagogning vazifasi sanaladi. Pedagog kutilayotgan natijaga erishish uchun avvalo darsni rejulashtirishi yoki loyihalashtirishi lozim bo‘ladi. Darsni loyihalashtirishda quyidagi tavsiyalarni berib o‘tamiz.

Pedagogik jarayonni loyihalashda:

1. Pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
2. Natijalarni oldindan ko‘ra bilish;
3. Rejulashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o‘qituvchining mustaqil, shu bilan birga o‘quvchi bilan hamkorlikda o‘quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o‘rin tutadi. Loyihalar predmet va uning yo‘nalishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Quyida kelishiklar haqida fikr-mulohazalar yuritamiz.

Bosh kelishik. Bosh kelishik boshqa kelishiklarga zid holda ko‘rsatkichsizdir. Bu kelishikdagi so‘zlar kim? nima? qayer? kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi. Bosh kelishik otning bosn shakli bo‘lib, u egalik, ko‘plik qo‘sishchalari bilan qo‘llanganda ham o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi: kitob, kitoblar, kitobim. Bosh kelishikdagi so‘z boshqa so‘zlar bilan quyidagicha ikki turdagи munosabatga kirishadi:

a) mikrosintagmatik munosabatlari barqaror birikmalar hosil qilishda ishtirok etadi:

1.Qo‘shma so‘zlar yasalishida ularning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etib, tobe munosabatlari mikrosintagmatik butunlik hosil qiladi: toshko‘mir, oshqozon, jigar rang, kul rang, tamom bo‘lmoq, hayron bo‘lmoq, qaror qilmoq, va’da bermoq.

2.Bosh kelishikdagi ot takroriy (teng munosabatlari mikrosintagmatik aloqada) qo‘llanib, o‘z lug‘aviy ma’nosidan tashqari miqdoriy ortiqlik, kuchaytirish kabi

qo'shimcha ma'no bo'yoqlariga ega bo'ladi: ombor-omor g'alla, guruh-guruh odam, quchoq-quchoq gul.

- b) makrosintagmatik munosabatni shakllantirishda ishtirok etadi
1. Gapda ega vazifasini bajaradi: Oltin o'tda, odam mehnatda bilinadi. Toshkent-do'stlik shahri.
 2. Kesim yoki uning ot qismi vazifasini bajaradi: Mustaqillik-buyuk ne'mat. Hunarlining qo'li-gul. Anvarning akasi fermer ekan.
 3. Izohlovchi vazifasini bajaradi: Majlisda professor Mamatov nutq so'zлади.
 4. Sifatlovchi vazifasida qo'llaniladi: Asfalt yo'ldan mashinalar g'iz-g'iz o'tib turar edi.
 5. Bosh kelishikdagi otlar bilan, uchun, uzra, haqida, to'g'risida ko'makchilar bilan birgalikda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi: Ona o'g'ilchasini oq choyshab bilan o'radi.
 6. Payt bildiruvchi otlar bilan birikib, hol vazifasida kelishi mumkin: Shu kuni Odilbek mehmon kutmoqda edi.
 7. Bosh kelishikdagi ot yakka yoki birikmali holda atov gap vazifasini bajaradi: Kuz. Izg'irin shabada hushtak chalib turibdi
 - 8.Undalma vazifasini bajaradi: Chimxo'rsan-da, qizim, shu ham osh yeishmi? (A.Qod.)

Qaratqich kelishigi. Narsaning shu kelishikdagi otdan angla-shilgan boshqa narsaga qarashli ekanini bildiradi va kimning? Nima-ning? qayerning? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Qaratqich kelishi-gining asosiy morfologik ko'rsatkichi -ning: ishning samarasini, uyning jahozi, dalaning havosi. She'riyatda -n, -im shaklida ham ishlataladi: Har bolam ufurgan nafasin atri- she'rimning eng yetuk, eng yaxshi satri (G'.G'.). O'zbekiston-vatanim manim (A.O.). Men, sen kabi kishilik olmoshlaridan keyin -ing tarzida qo'shiladi: Men+ing, sen+ing. Qarluq lahjasiga kiruvchi markaziy shahar shevalarida, so'zlashuv nutqida -ni shaklida ham ishlataladi va tushum kelishigi bilan shakldoshlikka ega bo'ladi: Yomonni bir qilig'i ortiq. Qaratqich kelishigidagi so'z ko'pincha egalik affiksini olgan ot bilan birikadi. Bunda qaratqich kelishigidagi so'z

qaratqich, egalik affiksini olgan ot esa qaralmish deb nomlanadi. Qaratqich kelishigi belgili va belgisiz ishlataladi. U belgili qo'llan-ganda qarashlilik ma'nosi ta'kidlanib, aniq anglashilib turadi: daraxt-ning ildizi, Dehqonlarning hayoti. Belgisiz qo'llanganda esa qaratqich va qaralmish asosida anglashilgan qarashlilik ma'nosi umumiy, mavhum bo'ladi. Bunda so'zning qaratqich kelishigida ekanligi qaralmish-dagi egalik affiksi orqali anglashilib turadi: daraxt ildizi, dehqonlar hayoti. Ba'zan qaratqich ham, qaralmish ham belgisiz qo'llanilib, so'zlar o'rtaсидаги sintaktik aloqa mazmun orqali anglashiladi: O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim, Yo rab, netayin, ne yuz qaroliq bo'ldi (Bobur.).

Bu kelishik leksik va grammatik ma'nolar talabiga ko'ra quyidagi hollarda belgisiz ishlatalishi mumkin:

- 1.Qaratqich kelishigidagi so'z mavhum ot bo'lganda: vijdon amri, hayot mazmuni, kuy sehri, umr savdosi, til birligi.
- 2.Qaralmish payt ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lganda: tush vaqt, tong mahali, yoz chog'i, ko'klam payti.
- 3.Qaratqich tur-nav ma'nosini bildirganda: bug'doy uni, chigit yog'i, cho'l qovuni, mahalla markazi, yoshlar markazi, kamolot tashkiloti.
4. Qaratqich qaratqich bilan bog'langanda: madaniyat rivojining shartlari, O'zbekiston madaniyatining negizi kabilar shular jumlasidan-dir.

Gapda qaratqich kelishigidagi so'z qaratqichli aniqlovchi vazifasini bajaradi: Bu yerdan hovlining bog'cha va polizning qarovsizligi yana ham yaqqolroq ko'rinar edi (A.Q). Qaratqich kelishigidagi so'z belgili va belgisiz shaklda ba'zi ko'makchilar bilan munosabatga kirishib, ular bitta sintaktik vazifani, ya'ni to'ldiruvchi yoki hol vazifasini bajaradi: Erkak qaddi to'g'risidagi gapi mening uchun ham yangilik (A.Q). Ovqat orqasidan choy berildi (A.Qod). Olimxon kavak orasiga kirib ketdi (O). Tushum kelishigi. Ish-harakatni o'ziga qabul qilgan narsani anglatib, kimni? nimani? qayerni? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Tushum kelishigining asosiy ko'rsatkichi –ni bo'lib, mazkur kelishik bilan shakllangan so'z hamma vaqt o'timli fe'l bilan birikadi: hayotni tushunmoq, vazifani bajarmoq, bahorni his qilmoq, dalani aylanmoq. She'riy nutqda

tushum kelishigi –n shaklida ishlatiladi: Tinim yo‘q, har nafas sep yozar, bahor yozib o‘z tugunchagin (H.O.). Tushum kelishigi men, sen olmoshlaridan so‘ng va mumtoz she’riyatda –i shaklida ishlatiladi: Men+i tanimay, sen+i tanibdi. Adl qulog‘ila eshit holim+i (Muqimiyy.). Tushum kelishigi belgili va belgisiz ishlatiladi. Atoqli va shaxs bildiruvchi otlar, egalik affiksini olgan turdosh ot, aniqlovchi olgan ot, harakat nomi, olmosh, son, sifat, ravish va boshqa otlashadigan so‘zlar tushum kelishigi bilan turlansa har doim belgili bo‘ladi: Navoiyni oldim qo‘limga (H.O.). Yo‘lchi titroq qo‘llari bilan Gulnorning sochlarini asta siladi (O.). Egilgan boshni qilich kesmas. Bo‘linganni bo‘ri yer. (Maqol) Tushum kelishigidagi so‘z, asosan, bir turdagи narsani ifoda qilib, uni ta’kidlash lozim bo‘lmaganda belgisiz qo‘llanadi: «Eshon hey» degani esa «Hovliga borib ayt, nozik mehmon olib kelaman»degani bo‘lar ekan (A.Q). Shoirlari g‘azal yozadi, botirlari kanal qazadi (H.O). Tushum kelishigining doim belgisiz ishlatilishi, ma’no kasb etmoq, farzand kutmoq, quloq solmoq singari turg‘un birikmalarda ham uchraydi. Tushum kelishigidagi so‘z gapda vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: Umrini ilmga bag‘ishlagan odam abadiy umrga erishadi. O‘n sakkizga kirgan odam olamni ming xil jilvada ko‘radi...(S.A). Jo‘nalish kelishigi. Ot orqali ifodalangan narsaning harakat yo‘nalgan o‘rin, vaqt, sabab yoki ish-harakatning bajarilishida vosita ekanligini anglatadi. Jo‘nalish kelishigining affiksi –ga bo‘lib, k yoki g undoshi bilan tugagan o‘zakka –ka, q yoki g‘ undoshlari bilan tugagan o‘zakka esa - ga tarzda qo‘shiladi: uy+ga, ish+ga, jamiyat+ga, kitob+ga, oila+ga; bezak+ga-bezakka, barg+ga-barkka, bog‘+ga-bog‘ga, qishloq+ ga-qishloqga kabi. Jo‘nalish kelishigi affiksi she’riyatda va o‘g‘uz lahjasida –a shaklda ham uchraydi: Lozim siza har tilni biluv ona tilidiyek, Bilmakka ani g‘ayrat eting foydayi kondur (Avaz O‘tar.). Bu kelishik affiksi ko‘rsatish olmoshlariga qo‘shilganda n undoshi orttiriladi: bu+n+ga, shu+n+ga, u+n+ga. Jo‘nalish kelishigi, asosn, belgili ishlatiladi. Uning belgisiz ishlati-lishi juda kam uchraydigan hodisalardan bo‘lib, harakat yo‘nalgan o‘rin ifodalanganda belgisiz ishlatilishi mumkin. Masalan: bozor bormoq, boshini quyi solmoq, past ketmoq kabi sanoqli o‘rinlardagina belgisiz ishlatiladi. Jo‘nalish kelishigi affiksi ba’zi so‘zlar tarkibida o‘z ma’nosini yo‘qotgan holda uchraydi . Bunday tarzda yangi so‘z , ya’ni

ravish yasaladi: birga,birdaniga, ertaga, to‘g‘riga. Jo‘nalish kelishigi ot, olmosh, son, harakat nomi, sifat, sifatdosh, undov va taqlid so‘zlarga qo‘shilb, ko‘pincha fe’lga tobelangan holda boshqaruvli birikma hosil qiladi. Bunda ot va ot tipli so‘zlardan boshqa so‘zlar o‘z lug‘aviy ma’nosini kengaytirib otlashadi: ukasiga olmoq, barchaga tarqatmoq, uchoviga keltirmoq, birinchiga yetmoq, yaxshiga yondashmoq, bilmaganga tushuntirmoq , dodiga quloq solmoq, shivir-shiviriga uyg‘onmoq. Ba’zan jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarni sifat, ravish va harakat nomi ham boshqarishi mumkin: Bir yigitga qirq hunar oz. Bilganga oson, bilmaganga qiyin. U hammaning diqqatini o‘ziga qaratishni biladi. Jo‘nalish kelishigidagi so‘z ko‘makchilar bilan birikib, ular bilan bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi: buyruqqa binoan kelmoq, kelishuvga ko‘ra uchrashmoq, uyga qadar bormoq.

Bu kelishigidagi ot, otlashgan so‘zlar gapda qo‘yidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. Kimga? nimaga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: To‘tviso buning sababiga qiziqdi (A.Q). Mehr va muruvvat yilining mazmun-mohiyati qari va kasalmand kishilarga g‘amxo‘rlikda seziladi.
2. Qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin holi vazifasini bajaradi: Nayman cho‘llariga chinakam bahor kirdi (S.Ahmad.).
3. Qachon? qachonga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasini bajaradi: Universiada musobaqalari sentyabr oyiga qoldirildi.
4. Nima maqsadda? nimaga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, maqsad holi vazifasini bajaradi: Biz ilmning qal’asini olmoqqa keldik, baxtimizning sozini chalmoqqa keldik (Shayxzoda.).
5. Nima sababli? nega? so‘rog‘iga javob bo‘lib, sabab holi vazifasini bajaradi: Jonajon yurtim mustaqil bo‘lganiga quvonchim cheksiz.
6. Qanchaga? qancha? so‘rog‘iga javob bo‘lib, miqdor holi vazifasini bajaradi: Bu mahsulotlarning umumiy qiymati yuz ming AQSH dollariga tengdir.
7. Jo‘nalish kelishigidagi so‘z gapda kesim vazifasini bajaradi: Yosh kelsa ishga, qari kelsa oshga.

O‘rin-payt kelishigi. Otning ish-harakat o‘rni, payti, sababi, holati, maqsadi kabi ma’nolarni ifodalaydi. O‘rin-payt kelishigi so‘z –da affiksi orqali shakllanadi. Og‘zaki nutqda va shevalarda –ta shaklida ham ishlataladi. Jo‘nalish kelishigida bo‘lgani kabi bu kelishik ham ko‘rsatish olmoshlariga qo‘shilganda n undoshi orttiriladi: shu+n+da, bu+n+da, u+n+da kabi. O‘rin-payt kelishigining belgisiz shakli payt ma’nosini anglatuvchi negizlardagina uchraydi: Ayasi o‘sha qonli oqshom yashirincha darsga ketayotgan ekan. (A. Q.) Bu kelishikning belgisiz shakli uyushib kelgan bo‘laklar tarkibida ham uchraydi: Bolalar yaslilari, bog‘chalari va boshqa tarbiya maskanlarida mehnatkashlarning farzandlari tarbiyalanmoqda. O‘rin-payt kelishigi ot o‘rnida ishlataladigan olmoshlar, fe’lning harakat nomi shakli singari ot tipli so‘zlarga bevosita birikadi. Biroq sifat, son turkumlari o‘rnida ishlataladigan olmoshlarga hamda ba’zi ravishlar, fe’lning sifatdosh shakllariga qo‘shilganda ular otlashadi: Xayoli o‘shanda bo‘lsa kerak. Shunda biz xayrlashdik. Ko‘pda bo‘lsa bizda ham bo‘ladi. Salima kelganida u yo‘q edi. O‘rin-payt kelishigi affiksi ot ko‘makchilarga qo‘silib, ular bilan birgalikda bitta grammatik vazifaga ega bo‘ladi: Bir hafta ichida barcha topshiriqlar bajarib bo‘lindi. O‘rin-payt kelishigi affiksi ba’zan ot va otlashuvchi so‘zlarga qo‘silib, yangi so‘z hosil qiladi va o‘z ma’nosini yo‘qotadi: a) bir soni+o‘rin-payt kelishigidagi payt bildiruvchi ot asosida ravish yasaladi: bir zumda, birpasda, bir vaqtda; b) o‘rin-payt kelishigi affiksi sifat bilan birikib ravishga ko‘chadi: yaqinda, uzoqda, o‘ngda, quyida; v) holat ravishi o‘rin-payt kelishigi affiksini olgan holda payt ma’nosini ifodalaydi: tezda; g) ko‘makchiga ko‘chadi: haqida, to‘g‘risida, xususida, tarzda, bobida; d) modal so‘zga ko‘chadi: har holda, haqiqatda.

O‘rin-payt kelishigidagi so‘zlar gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kimda? nimada? so‘rog‘iga javob bo‘lib vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: Yodgor qizning bir marta kulib qarashini ko‘rish orzusida sakkiz chaqirim naridan o‘rtog‘ining velosipetida kelib ketar edi (O‘.Hoshimov). Insonda umid bo‘lmasa edi, hayot lazzati so‘nardi.

2. Qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin holi vazifasini bajaradi: Ostonada Mastura turar edi (O.Yoqubov).

3. Qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasini bajaradi: Navdalarni bezab g‘unchalar, Tongda aytur hayot otini (H. Olimjon).

4. Qay tarzda? so‘rog‘iga javob bo‘lib, vaziyat holi vazifasini bajaradi: Qiz parishon holda uyg'a qaytdi (O).

5. Nimaga? nima maqsadda? so‘rog‘iga javob bo‘lib, maqsad holi vazifasini bajaradi: Biz Samarqandga qadimiy obidalarni tomosha qilish niyatida yo‘l oldik.

6. Gapda yakka holda yoki to‘liqsiz fe’llar bilan birikib kesim vazifasini bajaradi: Butun xayoli, qalbi o‘sha oy yuzli dilbar qizda (M.Qoriyev.). Hamma illat otamda ekan. (A.Qahhor.)

Chiqish kelishigi ish-harakatning kelib chiqish nuqtasi, manbasi, o‘rni, sababi yoki vositasi bo‘lgan nasani ko‘rsatadi. Chiqish kelishigi –dan affaksi orqali shakllanadi. Shevada, mumtoz adabiyotda –tan, -nan, din,-tin shakllarda ham uchraydi: Yuzing visolig‘a yetsun desang ko‘ngillarni, Sochingni boshdin-oyoq shikan qilg‘il (A.Navoiy). Qani, Mehmon, nonnan oling! Jo‘nalish, o‘rin-payt kelishigida bo‘lgani kabi bu kelishik ham ko‘rsatish olmoshlariga qo‘shilganda n undoshi orttiriladi: shu+n+dan, bu+n+dan, o‘sha+n+dan kabi. Chiqish kelishigidagi so‘z mustaqil so‘z tomonidan boshqarilib, asosan belgili ishlatiladi. Uning belgisiz shaklini uyushib kelgan gap bo‘laklaridagina uchratish mumkin: Uning butun jihizi temir kravat, ikkita tubaretka, ustiga allanima to‘kilib, qotib qolgan qo‘pol stoldan iborat edi (A.Qahhor.). Chiqish kelishigi otdan tashqari uning o‘rnida ishlatiladigan olmoshlar, harakat nomi kabi ot tipli so‘zlarga bevosita qo‘shiladi. Sifat, son, hamda ular o‘rnida ishlatiladigan olmoshlar, ravish va sifatdoshlarga qo‘shilganda bu guruhg'a mansub so‘zlar otlashadi: Sendan xursandman. O‘qishdan charchamasdi. Yaxshidan bog‘ qoladi, Yoshi o‘n sakkizdan oshgandi. Ko‘pdan quyon qutulmas. Chiqish kelishigidagi so‘z keyin, so‘ng, buyon, beri, boshqa singari ko‘makchilar bilan birikkanda ular bilan birga bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi: darsdan so‘ng uchrashmoq, ertalabdan buyon kutmoq. Chiqish kelishigi ba’zi so‘zlar tarkibida qotib qolgan holda o‘z ma’nosini yo‘qotadi va buning natijasida quyidagi so‘zlar hosil bo‘ladi: 1) ravish: birdan, zimdan, to‘satdan, halitdan, qo‘qqisdan; 2) modal so‘z: aftidan, haqiqatdan, o‘z-o‘zidan. Tartib sonlarga qo‘shilanda ham ular

modal ma'noga ega bo'ladi: Bilimni yaxshi egallash uchun, birinchidan, qunt bilan o'qish, ikkinchidan, o'qilgan narsani takrorlab turish lozim bo'ladi; 3) ko'makchilar hosil bo'ladi: qaramasdan, sababdan, ustidan, ichidan, yonidan... kabilar.

Chiqish kelishigidagi so'z gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kimdan? nimadan? so'rog'iga javob bo'lib, vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: U mashinadan tushib, olmos qirralari yarqirab yotgan oppoq ufq etaklarini ko'zdan kechirdi (H.G'ulom.).

2. Qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib, o'rin holi vazifasini bajaradi: Faqat erinchoq xo'rozlarga olis-olislardan ovoz berib qo'yardi (S.Ahmad.).

3. Qachondan? qachon? so'rog'iga javob bo'lib, payt holi vazifasini bajaradi: Erta bahordan to kuzgacha chinobodliklar arava-arava shox-shabba sudrab Kuyganyor tarafga yo'l oldilar (S.Ahmad.).

4. Nimaga? nima uchun? so'rog'iga javob bo'lib, sabab holi vazifasini bajaradi: Sovuqdan Yo'ldoshning oyoqlari zirqiray boshladi. (H.G'ulom.)

5. Chiqish kelishigidagi so'z tuslovchi affiks yoki to'liqsiz fe'l bilan birikib kesim vazifasini bajaradi: Men ham asli qishloqdanman.

Kelishik affikslari sinonimiyasi. Kelishik affikslari otning boshqa so'zlar bilan grammatik aloqasini ta'minlovchi eng faol kategoriyalardan hisoblanadi. Shu bois bu kategoriya mansub bo'lган affikslar nutqiy jarayonda o'zaro hamda boshqa turli til birliklari bilan ma'nodoshlik munosabatlariga ham ega bo'ladi. Xususan, bunday ma'nodoshlik munosabatini quyidagi kelishiklarda kuzatish mumkin:

1. Qaratqich kelishigi va u asosida hosil bo'lган birikmalar quyidagi vositalar bilan sinonimik munosabatga kirishadi: 1) chiqish kelishigi bilan ma'nodoshlik munosabatiga ega bo'ladi. Bunda qaratuvchi qaratqich kelishigida kelsa qarashlilik ma'nosи ta'kidlanadi, chiqish kelishigida kelganda qarashli bo'lган narsadan ulush, qism, bo'lak ajratiladi: Markaziy gazetalarning biri- markaziy gazetalardan biri, Mehmonlarning kattasi- Mehmonlardan kattasi. Misollardan ko'rindan, chiqish kelishigi qaratuvchi vazifasida kelganda bu kelishik affikkisi ko'plik shaklidan keyin qo'shiladi hamda qaralmish sifatida ko'pincha miqdor yoki belgi bildiruvchi so'z

ishlatiladi; 2) ba’zi birikmalar tarkibida o‘rin belgi shaklini hosil qiluvchi –dagi affiksi bilan ham ma’nodoshlik hosil qilishi mumkin: Sening irodang-sendagi iroda.

2. Makon va zamon kelishiklari nomi bilan umumlashtiruvchi tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari o‘zaro sinonim bo‘lishi mumkin. Masalan: Chopar tezgina otini (otiga) mindi. Karvon uzoq vaqt cho‘lni (cho‘lda) kezib yurdi. Mehmon piyolaga quyilgan choyni(choydan) ho‘pladi. Keksalar hovuz yonida (yoniga) to‘planishdi. O‘ylamay aytgan gapimga (gapimdan) pushaymon bo‘ldim. Shu yo‘lda (yo‘ldan) qat’iy yurib maqsadga yetdik.

3. Mazkr kelishiklar ma’no va vazifasiga ko‘ra bosh kelishikdagi so‘z bilan birikkan ko‘makchilar bilan ham sinonimik munosabatda bo‘ladi: kamchiliklarni-kamchiliklar to‘g‘risida gapirishib oldik, sizga-siz uchun oldim, shu yo‘ldan-shu yo‘l bilan boriladi, telefonda-telefon orqali gaplashdik.

Quyida kelishiklarni o‘qitishga doir interfaol usullardan keltiramiz.

Zakovat o`yini

Bu o`yinni o`tkazishda dastlab auditoriyani o`yinga moslashtirish lozim bo`ladi. O`yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o`quvchilar o`yinda ishtirok etish huquqiga ega bo`ladi. O`yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo`ladi. Qolgan o`quvchilar esa o`yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O`yin uchun mo`ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo`yiladi. Guruh sardori savolni olib o`qituvchiga beradi. O`qituvchi savolni o`qib eshittiradi. Javobni aniklash uchun bir dakika vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o`yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o`yinni asosan, yuqori sinfda o`tkazish tavsiya etiladi.Zakovat o`yinlarida asosan, o`rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

6X6X6

Mazkur metodlarning adabiy ta`lim jarayonida foydalanish mumkin bo`lganlardan yana biri 6X6x6 metodidir. Bu metoddan adabiy asarlar ustida ishslashda foydalanishda adabiyot o`qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o`quvchilar oltita-

oltitadan guruhlarga bo`linadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e`lon qilinadi, o`qituvchi guruhning a`zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va o`z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a`zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o`rganadilar, unga o`z munosabatini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt ichida o`quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o`zlari tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi.

Kungoboqar metodi - kungoboqar rasmi o`rtasida unli harflar, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo`ladi. O`quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo`shib, bir necha so`zlar tuzishadi. O`yin davomida o`rtadagi unlilarni almashtirish ham mumkin. Bu jarayonda hamma o`quvchilar baravar ishtirok etadilar. O`qituvchi esa mashg`ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag`batlantirib, baholab boradi. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o`quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko`proq o`quvchilarni baholashga xizmat qiladi.

Sinkveyn metodi – sinkveyn so`zining ma`nosi “beshlik” bo`lib, “Qofiyalanmagan besh qatorlik she`r” degan ma`noni anglatadi. O`quvchilar “Sinkveyn” metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she`r yozadilar. Bunga ko`ra birinchi qator bitta so`zdan iborat bo`lishiva bu ot so`z turkumiga oid so`z bo`lishi, ikkinchi qator ikkita so`zdan iborat bo`lishi va busifat so`z turkumiga oid so`z bo`lishi, uchinchi qator uchta so`zdan iborat bo`lishi va bu fe`l turkumiga oid so`zlar bo`lishi, to`rtinchchi qatorda to`liq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi so`zga sinonim bo`lgan bir so`z qo`yilishi mumkin.

Ushbu metoddan o`quvchilar so`z turkumlari haqida tushunchalarga ega bo`lganlaridan so`ng foydalanishi mumkin. O`qituvchi o`quvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, o`quvchilarni ham bir-birlarining so`zlariga e`tibor bilan qarashga o`rgatadi. E`tiroz yoki qo`sishchalar ham “hurmatli”, “Sizlarning fikringizga qo`shilgan holda”, “bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi” kabi so`zlar orqali bildiriladi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o`quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o`z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga

o'rganadi. Ma'lumki, ona tili darsida ham lug'at ishlarini o'tkazish o'quvchilarda o'zi uchun notanish bo'lgan so'zni izohi haqida qiziqish paydo bo'ladi. Bu so'zlarning izohini topishda o'quvchining o'zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda yuqoridagi metod o'quvchilarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug'at bilan ishslashga ham o'rgatadi. Darsda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hisoblanadi. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsiyonal jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi Sanalib o'tilgan metodlarimiz ayniqsa, ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu metodlar orqali o'quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotda o'ziga ishonch bilan qarashga o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiymasalalari. Toshkent, "Tafakkur", 1998 yil.
- 2.Yangi pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.
- 3.B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006-yil
- 4.I.Holmurodov. Ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 2-som,